| Политика в отношении обработки персональных данных ООО "HAMKOR MEDIATION" | "HAMKOR MEDIATION" MChJ ning Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash to'g'risidagi siyosat |
|---|---|
| Пользование услугами ООО "HAMKOR MEDIATION" (далее – КА) означает безоговорочное согласие пользователя с настоящей Политикой в отношении обработки персональных данных (далее - Политика). КА имеет право в любое время в одностороннем порядке изменять, добавлять и/или удалять части Политики. Все внесенные изменения в Политике вступают в силу с момента размещения на сайте www.pay.hamkor-m.uz/ (далее – Сайт). | "HAMKOR MEDIATION" MChJ (bundan buyon - KA) xizmatlaridan foydalanish foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash to'g'risidagi ushbu Siyosatga (bundan buyon - Siyosat) so'zsiz roziligini bildiradi. KA istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda Siyosatning qismlarini o'zgartirish, qo'shish va/yoki olib tashlash huquqiga ega. Siyosatga kiritilgan barcha o'zgartirishlar www.pay.hamkor-m.uz/ (bundan buyon - Sayt) saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. |
| **Политика:**<br>• действует в отношении персональных данных, которые КА может получить от пользователя во время использования услуг КА, а также при посещении и использования сервисов Сайта;<br><br>• действует в отношении данных, полученных от сторонних организаций – кредитных бюро, центров по выплате пенсий и других организаций (далее - третьи лица);<br><br>• разъясняет порядок осуществления обработки и защиты персональных данных пользователя. | **Siyosat:**<br>• KA xizmatlaridan foydalanish paytida, shuningdek, Saytga tashrif buyurish va uning xizmatlaridan foydalanish chog'ida foydalanuvchidan olishi mumkin bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan amal qiladi;<br>• tashqi tashkilotlar - kredit byurolari, pensiya to'lov markazlari va boshqa tashkilotlardan (keyingi o'rinlarda - uchinchi shaxslar) olingan ma'lumotlarga nisbatan amal qiladi;<br><br>• foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ularni himoya qilish tartibini tushuntiradi. |
| **1. Цели сбора и обработки персональных данных**<br>1.1. КА осуществляет сбор и обработку персональных данных пользователя в следующих целях:<br>• для целей идентификации и предоставления на Сайте КА в порядке и с учетом ограничений, предусмотренных внутренними нормативными документами КА, для обеспечения режима безопасности КА;<br>• для выполнения КА обязанностей по хранению документов, материалов, кредитных досье, установленных нормативными правовыми актами Республики Узбекистан и внутренними документами КА;<br>• для судебной и внесудебной защиты прав КА в случае нарушения пользователем своих обязательств;<br>• для рассмотрения и(или) предоставления ответов на мои (и/или третьих лиц) обращения, жалобы, предложения, рекомендации, претензии, поручения и т.д.;<br><br>• для целей контроля КА за надлежащим исполнением моих обязанностей, установленных договором займа; | **1. Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash maqsadlari**<br>1.1. KA foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlarda to'playdi va qayta ishlaydi:<br><br>• KA xavfsizligi rejimini ta'minlash uchun KAning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va cheklovlarni hisobga olgan holda KA Saytida identifikatsiyalash va taqdim etish maqsadida;<br>• O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va KAning ichki hujjatlarida belgilangan hujjatlar, materiallar, kredit hujjatlarini saqlash bo'yicha KA majburiyatlarini bajarish uchun;<br><br>• foydalanuvchi o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda KA huquqlarini sud va suddan tashqari himoya qilish uchun;<br>• foydalanuvchining (va/yoki uchinchi shaxslarning) murojaatlari, shikoyatlari, takliflari, tavsiyalari, da'volari, topshiriqlari va boshqalarni ko'rib chiqish va (yoki) ularga javob berish uchun;<br>• foydalanuvchining qarz shartnomasida belgilangan majburiyatlarining tegishli ravishda bajarilishini KA tomonidan nazorat qilish |

| | |
|---|---|
| • для целей передачи (получения) корреспонденции (почты) в мой адрес для отправки (доставки)/получения посредством услуг курьера, курьерской службы, экспресс почты, электронных сообщений и т.д.; | maqsadida;<br>• kuryer, kuryerlik xizmati, tezkor pochta, elektron xabarlar va boshqalar orqali foydalanuvchining manziliga xat-xabarlarni (pochtani) jo‘natish (yetkazib berish) yoki qabul qilish maqsadida; |
| • коммуникации с пользователей по поводу заключения и исполнения договора займа; | • qarz shartnomasini tuzish va bajarish bo‘yicha foydalanuvchilar bilan aloqa o‘rnatish uchun; |
| • оценки платёжеспособности пользователя; оценки, предотвращения и управления рисками; | • foydalanuvchining to‘lov qobiliyatini baholash; xatarlarni baholash, oldini olish va boshqarish uchun; |
| • передачи персональных данных кредитным бюро и центру по выплате пенсий для получения необходимой информации о пользователе; | • foydalanuvchi haqida zarur ma’lumotlarni olish uchun shaxsiy ma’lumotlarni kredit byurosi va pensiyalarni to‘lash markaziga uzatish; |
| • осуществления взаиморасчетов с пользователем; | • foydalanuvchi bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun; |
| • предотвращения мошенничества, финансирования терроризма и отмывания денег; | • firibgarlik, terrorizmni moliyalashtirish va jinoiy daromadlarni legallashtirish holatlarining oldini olish uchun; |
| • предотвращения использования услуг КА в корыстных целях; | • KA xizmatlaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanishning oldini olish uchun; |
| • взыскания задолженностей (включая в бесспорном порядке); | • qarzlarni undirish (shu jumladan, nizosiz tartibda) uchun; |
| • уступки права требований (цессии); | • talab qilish huquqini boshqa shaxs foydasiga o‘tkazish (cessiya) uchun; |
| • рекламы (например, коммуникация с лицами в целях рекламы услуг; организация мероприятий для пользователей; таргетинг, использование cookie-файлов; коммуникация с потенциальными пользователями); | • reklama maqsadlari uchun (masalan, xizmatlarni reklama qilish maqsadida shaxslar bilan muloqot qilish; foydalanuvchilar uchun tadbirlarni tashkil etish; maqsadli reklama, cookie-fayllardan foydalanish; potensial foydalanuvchilar bilan aloqa o‘rnatish); |
| • обеспечение безопасности (включая информационную безопасность и кибербезопасность); защита имущества и работников; предотвращение правонарушений); | • xavfsizlikni ta’minlash (shu jumladan axborot xavfsizligi va kiberhimoya); mulk va xodimlarni himoya qilish; huquqbuzarliklarning oldini olish); |
| • улучшение качестве предоставляемых услуг; | • ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish; |
| • контроль качества коммуникации между пользователями и работниками КА; сохранение доказательств; | • foydalanuvchilar va KA xodimlari o‘rtasidagi muloqot sifatini nazorat qilish; dalillarni saqlash; |
| **2. Сбор и хранение персональной информации пользователей** | **2. Foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ish va saqlash** |
| 2.1. КА имеет право производить сбор и хранение следующей информации, которую пользователь предоставляет о себе самостоятельно в процессе использования услуг КА, а также полученную от третьих лиц: | 2.1. KA foydalanuvchi KA xizmatlaridan foydalanish jarayonida o‘zi haqida mustaqil ravishda taqdim etadigan, shuningdek uchinchi shaxslardan olingan quyidagi ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash huquqiga ega: |
| • персональные данные пользователей Сайта, к такой информации относятся: фамилия, имя и отчество, адрес электронной почты, номер мобильного телефона, контактные телефоны (домашний и рабочий телефоны), адрес места регистрации и места жительства, реквизиты своего банковского счета (номер счета и | • Sayt foydalanuvchilarining shaxsiy ma’lumotlari, jumladan: familiyasi, ismi va otasining ismi, elektron pochta manzili, mobil telefon raqami, aloqa telefonlari (uy va ish raqamlari), ro‘yxatdan o‘tgan va yashash joyi manzili, bank hisob raqami rekvizitlari (hisob |

| | |
|---|---|
| наименование Банка), данные удостоверения личности, индивидуальный идентификационный код, наименование работодателя, размер заработной платы, дата заработной платы, семейное положение, вид собственности, информация о платежеспособности и обязательствах, а также иные данные, которые автоматически передаются пользователем и третьими лицами КА в процессе использования Сайта и услугами КА; | raqami va bank nomi), shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, shaxsiy identifikatsiya raqami, ish beruvchining nomi, ish haqi miqdori va sanasi, oilaviy ahvoli, mulk turi, to'lov qobiliyati va majburiyatlari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, foydalanuvchi va uchinchi shaxslar tomonidan Saytdan foydalanish jarayonida va KA xizmatlaridan foydalanish orqali KAga avtomatik tarzda uzatiladigan boshqa ma'lumotlar; |
| • не идентифицирующая персональная информация о пользователях при посещении страниц Сайта, которая включает в себя IP-адрес, информацию из cookie, о браузере пользователя (или иной программе, с помощью которой осуществляется доступ к Сайту), время доступа, адрес запрашиваемой страницы, а также доменное имя провайдера интернет-услуг пользователя; | • Sayt sahifalariga tashrif buyurgan foydalanuvchilarning shaxsini aniqlamaydigan ma'lumotlar, jumladan IP-manzil, cookie-fayllardan olingan ma'lumotlar, foydalanuvchining brauzeri (yoki Saytga kirishni ta'minlaydigan boshqa dastur) haqidagi ma'lumotlar, kirish vaqti, so'ralgan sahifa manzili, shuningdek, foydalanuvchining internet-provayderi domen nomi; |
| • информация, включающая отправленную и согласованную оферту; | • yuborilgan va kelishilgan oferta haqidagi ma'lumotlar; |
| • другая информация о пользователе, предоставление которой необходимо для достижения вышеуказанных целей. | • yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun taqdim etilishi zarur bo'lgan foydalanuvchi haqidagi boshqa ma'lumotlar. |
| 2.2. КА имеет право осуществлять проверку достоверности предоставленной пользователями персональной информации. Последствия предоставления недостоверной информации определены в договоре займа. | 2.2. KA foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish huquqiga ega. Noto'g'ri ma'lumot taqdim etishning oqibatlari qarz shartnomasida belgilangan. |
| 2.3. КА имеет право передать персональную информацию о пользователе третьим лицам в следующих случаях: | 2.3. KA quyidagi hollarda foydalanuvchi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega: |
| • пользователь предоставил свое согласие на такие действия; | • foydalanuvchi bunday harakatlarga o'z roziligini bergan bo'lsa; |
| • такая передача необходима КА в рамках использования пользователем определенного сервиса Сайта, либо для оказания услуги пользователю; | • bunday uzatish KA tomonidan foydalanuvchining saytning ma'lum xizmatidan foydalanishi doirasida yoki foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lsa; |
| • передача персональных данных необходима в соответствии с законодательством РУз в целях обеспечения возможности защиты прав и законных интересов КА, когда пользователь нарушает условия оказания услуги, описанной в выставленном договоре займа. | • foydalanuvchi taqdim etilgan qarz shartnomasida ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish shartlarini buzganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq KAning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini ta'minlash uchun shaxsiy ma'lumotlarni uzatish zarur bo'lsa. |
| При этом третье лицо, осуществляющее обработку персональных данных по поручению КА, обязано соблюдать требования к брработке персональных данных, установленные законодательством Республики Узбекистан. | Bunda KAning topshirig'i bo'yicha shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiruvchi uchinchi shaxs O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish talablariga rioya etishi shart. |
| **3. Условия обработки КА персональной информации пользователей** | **3. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga KA tomonidan ishlov berish shartlari** |
| 3.1. При организации и обработке персональных данных пользователей КА | 3.1. KA foydalanuvchilarining shaxsiy |

| | |
|---|---|
| руководствуется требованиями Закона Республики Узбекистан Закона Республики Узбекистан «О персональных данных» (№ ЗРУ-547) от 2 июля 2019 года и принятыми в соответствии с ним нормативными правовыми актами Республики Узбекистан, а также Закон Республики Узбекистан от 3 сентября 1993 года № 938-XII «О государственном пенсионном обеспечении граждан» с изменениями по состоянию на 19 мая 2025 года» и Закон Республики Узбекистан «О кредитных бюро и формировании кредитных историй» является Закон № ЗРУ-706 от 11 августа 2021 года, который внёс изменения в Закон от 21 апреля 2010 года № ЗРУ-253.<br>3.2. КА осуществляет обработку персональных данных на законной основе. Только персональные данные, отвечающие целям обработки, подлежат ей. Содержание и объем обрабатываемых персональных данных соответствуют заявленным целям обработки, избыточность обрабатываемых данных не допускается.<br>3.3. В рамках выполнения требований действующего законодательства Республики Узбекистан КА осуществляет обработку персональных данных в целях выполнения операций по взысканию задолженности, а также в целях, указанных в пункте 1 настоящей Политики.<br>3.4. Персональная информация пользователей, полученная КА от пользователя для оказания услуг, остается собственностью пользователя. Передавая КА персональные данные, пользователь доверяет КА использовать их для любого законного использования, включая, без ограничений:<br>• передача информации третьей стороне согласно п. 2.3. настоящих Правил;<br>• отслеживание исполнения договоренностей по согласованной оферте;<br>• показ рекламных предложений, в том числе третьих лиц<br>• трансграничная передача персональных данных в соответствии действующим законодательством Республики Узбекистан.<br><br>**4. Конфиденциальность**<br>4.1. КА соблюдает требования к обеспечению конфиденциальности.<br>4.2. Передача персональных данных третьим лицам допускается также при условии сохранения конфиденциальности.<br>4.3. С целью участия в обработке полученной Заявки и Оферты и оказания услуг пользователю, работники КА допускаются к обработке персональных данных пользователей | ma’lumotlarini tashkil etish va qayta ishlashda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida"gi O‘RQ-547-sonli Qonuni va unga muvofiq qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari talablariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi 938-XII-sonli "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi Qonuniga (2025-yil 19-may holatidagi o‘zgartirishlar bilan) hamda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi O‘RQ-706-sonli "Kredit byurolari va kredit tarixlarini shakllantirish to‘g‘risida"gi Qonuniga (2010-yil 21-apreldagi O‘RQ-253-sonli Qonunga o‘zgartirish kiritgan) amal qiladi.<br><br>3.2. KA shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishni qonuniy asosda amalga oshiradi. Faqat qayta ishlash maqsadlariga mos keladigan shaxsiy ma’lumotlargina ishlov beriladi. Qayta ishlanayotgan shaxsiy ma’lumotlarning mazmuni va hajmi belgilangan maqsadlarga muvofiq bo‘ladi, qayta ishlanayotgan ma’lumotlarning ortiqchaligiga yo‘l qo‘yilmaydi.<br>3.3. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini bajarish doirasida KA qarzni undirish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, ushbu Siyosatning 1-bandida ko‘rsatilgan maqsadlarda shaxsiy ma’lumotlarga ishlov beradi.<br><br>3.4. Foydalanuvchilarning KAga xizmat ko‘rsatish uchun taqdim etgan shaxsiy ma’lumotlari foydalanuvchining mulki bo‘lib qoladi. Foydalanuvchi KAga shaxsiy ma’lumotlarini ishonib topshirar ekan, ularga quyidagi cheklanmagan qonuniy maqsadlarda foydalanish huquqini beradi:<br>• ushbu Qoidalarning 2.3-bandiga muvofiq ma’lumotlarni uchinchi tomonga uzatish;<br>• kelishilgan oferta bo‘yicha shartlarning bajarilishini nazorat qilish;<br>• reklama takliflarini, shu jumladan uchinchi shaxslarning takliflarini ko‘rsatish;<br>• O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsiy ma’lumotlarni transchegaraviy uzatish.<br><br>**4. Maxfiylik**<br>4.1. KA maxfiylikni saqlash talablariga rioya qiladi.<br>4.2. Shaxsiy ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatishga maxfiylik saqlanishi sharti bilan ruxsat beriladi.<br>4.3. Olingan Ariza va Ofertani qayta ishlashda ishtirok etish hamda foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatish maqsadida, KA xodimlariga |

| | |
|---|---|
| при условии принятия обязательств по сохранению конфиденциальности информации. | foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga ma’lumotlar maxfiyligini saqlash majburiyatini olgan holda ruxsat beriladi. |
| **5. Защита персональных данных**<br>5.1. КА принимает на себя обязательство по соблюдению требований законодательства Республики Узбекистан по защите персональных данных.<br>5.2. КА реализовал все необходимые способы защиты персональной информации пользователей.<br>5.3. КА принимает необходимые правовые, организационные, технические меры по защите персональных данных пользователей. Данные меры включают в себя: предотвращение изменения, копирования, уничтожения, блокирования, распространения персональных данных и иных неправомерных действий злоумышленников.<br>5.4. Под организационными и техническими мерами защиты понимается, но не ограничивается:<br>• допуск к организации, обработке и защите персональных данных только уполномоченных лиц;<br>• информирование работников о требованиях законодательства РУз и нормативных документов КА по обработке и защите персональных данных;<br>• учет и хранение материальных носителей персональных данных и их обращения, исключающие хищение, подмену, несанкционированное копирование и/или уничтожение;<br>• разработка и обеспечение системы защиты персональных данных;<br>• резервное копирование персональных данных.<br><br>5.5. КА, а также третье лицо принимают необходимые меры по защите персональных данных, обеспечивающие:<br>• предотвращение несанкционированного доступа к персональным данным;<br>• своевременное обнаружение фактов несанкционированного доступа к персональным данным, если такой несанкционированный доступ не удалось предотвратить;<br>• минимизацию неблагоприятных последствий несанкционированного доступа к персональным данным.<br>Обязанности КА, а также третьего лица по защите персональных данных возникают с момента сбора персональных данных и действуют до момента их уничтожения либо обезличивания. | **5. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish**<br>5.1. KA O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.<br>5.2. KA foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishning barcha zarur choralarini ko‘rgan.<br>5.3. KA foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko‘radi. Bu choralar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shaxsiy ma’lumotlarning o‘zgartirilishi, nusxalanishi, yo‘q qilinishi, to‘sib qo‘yilishi, tarqatilishi va boshqa g‘ayriqonuniy harakatlarining oldini olish.<br>5.4. Tashkiliy va texnik himoya choralari quyidagilarni o‘z ichiga oladi, ammo bular bilan cheklanmaydi:<br>• shaxsiy ma’lumotlarni boshqarish, qayta ishlash va himoya qilishga faqat vakolatli shaxslarga ruxsat berish;<br>• xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish hamda himoya qilish bo‘yicha KA me’yoriy hujjatlari talablari haqida xabardor qilish;<br>• shaxsiy ma’lumotlarning moddiy tashuvchilarini hisobga olish, saqlash va ularning muomalasini nazorat qilish, bu orqali o‘g‘irlash, almashtirish, ruxsatsiz nusxalash va/yoki yo‘q qilishning oldini olish;<br>• shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;<br>• shaxsiy ma’lumotlarning zaxira nusxasini yaratish.<br>5.5. KA, shuningdek uchinchi shaxs shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun quyidagilarni ta’minlovchi zarur choralarni ko‘radi:<br>• shaxsiy ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish;<br>• agar shaxsiy ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish imkoni bo‘lmasa, bunday holatlarni o‘z vaqtida aniqlash;<br><br>• shaxsiy ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish.<br><br>KAning, shuningdek uchinchi shaxsning shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha majburiyatlari shaxsiy ma’lumotlar yig‘ilgan paytdan boshlab yuzaga keladi va ular yo‘q |

| | |
|---|---|
| | qilinguncha yoki shaxssizlantirilguncha amal qiladi. |
| 5.6. КА продолжает постоянно укреплять системы информационной безопасности, в том числе по мере развития новых технологий. | 5.6. KA axborot xavfsizligi tizimlarini, shu jumladan yangi texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, doimiy ravishda takomillashtirib boradi. |
| **6. Согласие пользователя на сбор, обработку, хранение и передачу его персональных данных** | **6. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishga roziligi** |
| 6.1. Пользователь Сайта, подтвердив согласие с Политикой конфиденциальности при заполнении Заявки на Сайте, соглашается и предоставляет разрешение на сбор, обработку, хранение и передачу своих персональных данных в порядке, определенном Политикой и действующим законодательством Республики Узбекистан. | 6.1. Sayt foydalanuvchisi Saytda Arizani to'ldirishda Maxfiylik siyosatiga roziligini tasdiqlash orqali, o'z shaxsiy ma'lumotlarini Siyosat va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishga rozilik va ruxsat beradi. |
| 6.2. Если пользователь не согласен с условиями настоящей Политики, он должен воздержаться от использования Сайта, услуг КА и передачи персональных данных. | 6.2. Agar foydalanuvchi ushbu Siyosat shartlariga rozi bo'lmasa, u Saytdan foydalanishdan, KA xizmatlaridan va shaxsiy ma'lumotlarini uzatishdan tiyilishi lozim. |
| **7. Права пользователя** | **7. Foydalanuvchining huquqlari** |
| 7.1. Собственник персональных данных (пользователь) имеет право: | 7.1. Shaxsiy ma'lumotlar egasi (foydalanuvchi) quyidagi huquqlarga ega: |
| • знать о наличии у КА, а также третьего лица своих персональных данных, а также получать информацию, содержащую: | • KAda, shuningdek uchinchi shaxsda o'z shaxsiy ma'lumotlari mavjudligini bilish, hamda quyidagilarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni olish: |
| -подтверждение факта, цели, источников, способов сбора и обработки персональных данных; | -shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning maqsadi, manbalari, usullari va faktini tasdiqlash; |
| -перечень персональных данных; | -shaxsiy ma'lumotlar ro'yxati; |
| -сроки обработки персональных данных, в том числе сроки их хранения. | -shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish muddatlari, shu jumladan ularni saqlash muddatlari. |
| • получить доступ к своим персональным данным через Сайт. | • Sayt orqali o'z shaxsiy ma'lumotlariga kirish huquqi. |
| • отозвать согласие на сбор, обработку персональных данных при условии выполнения всех обязательств, принятых по Договору займа; | • Qarz shartnomasi bo'yicha qabul qilingan barcha majburiyatlarni bajarish sharti bilan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashga bergan roziligini qaytarib olish; |
| • дать согласие, отказать на распространение своих персональных данных в общедоступных источниках персональных данных. | • o'zining shaxsiy ma'lumotlarini ommaviy foydalanishdagi shaxsiy ma'lumotlar manbalarida tarqatishga rozilik berish yoki rad etish. |
| **8. Ответственность** | **8. Javobgarlik** |
| 8.1. Ответственность за невыполнение требований, регулирующих обработку и защиту персональных данных КА, а также его работников, имеющих доступ к персональным данным, регулируется согласно действующего законодательства Республики Узбекистан и внутренними документами КА. | 8.1. KAning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilishni tartibga soluvchi talablarni bajarmaganlik uchun javobgarligi, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan KA xodimlarining javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va KAning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi. |
| **9. Заключительные положения** | **9. Yakuniy qoidalar** |
| 9.1. Настоящая Политика распространяется | |

| | |
|---|---|
| только на Сайте КА и не распространяется на другие сайты, на которые пользователь может перейти, используя ссылки, размещенные на Сайте КА.<br>9.2. Настоящая Политика может изменяться в зависимости от изменений законодательства Республики Узбекистан в части сбора, обработки, хранения и защиты персональных данных. КА имеет право уведомлять пользователей об особенно значимых изменениях по электронной почте. Настоящая Политика, а также любые изменения и дополнения к ней вступают в силу с момента размещения на Сайте, с целью ознакомления всеми заинтересованными лицами, если иное не предусмотрено новой редакцией. | 9.1. Ushbu Siyosat faqat KA saytiga taalluqli bo‘lib, foydalanuvchi KA saytida joylashtirilgan havolalar orqali o‘tishi mumkin bo‘lgan boshqa saytlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.<br>9.2. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va himoya qilish bo‘yicha qonunchiligidagi o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. KA foydalanuvchilarni ahamiyatli o‘zgarishlar to‘g‘risida elektron pochta orqali xabardor qilish huquqiga ega. Ushbu Siyosat, shuningdek, unga kiritilgan har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar, agar yangi tahrirda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, barcha manfaatdor shaxslar tanishib chiqishi uchun Saytga joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. |